

Date: 5th November-2024

PROFILAKTIKA INSPEKTORI TOMONIDAN FIRIBGARLIKNING
VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH

Tog'ayev Jonibek

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 317-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorlarining firibgarlikning viktimologik profilaktikasini tashkil etish faoliyati tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari. Bundan tashqari sodir etilgan firibgarlikka doir huquqbuzarliklarning amaliyot tahlili, shuningdek hozirgi kunda profilaktika inspektori tomonidan firibgarlikning viktimologik profilaktikasini tashkil etish faoliyatidagi mavjud muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish buyicha taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

Аннотация: Актуальность темы данной научной статьи заключается в понятии и особенностях деятельности инспекторов по организации виктимологической профилактики мошенничества. Кроме того, освещен практический анализ совершенных мошеннических преступлений, а также существующие проблемы и недостатки в деятельности по организации виктимологической профилактики мошенничества инспектором по профилактике, а также предложения и рекомендации по их устранению.

Ilmiy maqolaning dolzarbligi: Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan g'oya faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirish va ularga kompleks yondashish, idoralararo hamkorlikni rivojlantirish, huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir qatorda, boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlarining ham ustuvor vazifasi etib belgilanishi bu borada ularning oldiga alohida vazifalar belgilab berilishi huquqbuzarliklar profilaktikasida samarali natijalarga erishishga imkon berdi.

Hozirgi vaqtda mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan aytib bo'lmaydigan murakkab sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini



Date: 5th November-2024

ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz chuqur anglaymiz. Bu esa o'tgan davr mobaynida erishgan yutuqlarimiz va yo'l qo'ygan kamchiliklarimiz, to'planib qolgan muammolarni chuqur tahlil qilish, bugun hayotning o'zi ilgari surayotgan talablarni hisobga olishni taqozo etmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunida huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish mexanizmi belgilab qo'yilgan. Mazkur qonunning qabul qilinishi o'z navbatida profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi doirasida aholi o'rtasida huquqiy targ'ibotni tashkil etishda ichki ishlar organlarining boshqa soha xizmatlari bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi.

Bu esa ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatiga ilg'or tajribalar, ish usullari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ular faoliyatini huquqiy, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik jihatdan va malakali kadrlar bilan ta'minlashni takomillashtirish, tayanch punktlari negizida o'zaro maqsadli hamkorlikni tashkil etishda jamoatchilik tuzilmalari ishtirokining samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Ichki ishlar organlarining firibgarlik jinoyatlarini oldini olishdagi asosiy vazifalaridan biri o'ziga birlashtirilgan mamuriy hududlarda jinoyatlarni aniqlash va fosh etish, aholi bilan muntazam ravishda mavjud muammolarni o'rganish va ularni hal etishning maqbul yo'llarini aniqlash, huquqbuzarliklardan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulqatvorga ega, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish talab etiladi.

YUqoridagilarga asoslanib birinchi navbatda «firibgarlik» va «viktimologiya» tushunchalariga to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jinoyat sodir etishning sabablar zanjirida jabrlanuvchi jiddiy rul' o'ynaydi, degan g'oya yangi emas, u ko'p sonli adabiy manbalarda va huquq ijodkorligi edgorliklarida o'z aksini topgan.

«Viktimologiya» tushunchasining lug'aviy ma'nosiga to'htaladigan bo'lsak, viktimologiya bu ensiklopedik va izohli lug'atlarda lotinchadan «victima» – jabrlangan, jabrlanuvchi va yunoncha «logos»–ta'limot, ya'ni jabrlanuvchilar haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi.

Mamlakatimizning kriminolog olimlari esa viktimologiya so'zining (lotincha «victima» – jabrlanuvchi va grekcha logos – ta'limot) mazmunini ochib berishda ensiklopedik va izohli lug'atlarga asoslanishgan. Aynan shuning uchun ham, ularning tadqiqotlarida «qurbon» atamasi o'rniga «jabrlanuvchi», «huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan shaxs» atamasi ko'proq ishlatilishi ko'zga tashlanadi.

Aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish haqida gapirilganda, eng avvalo, uning mazmunini tashkil etuvchi – «firibgarlik» atamasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim tushunchalarni tahlil qilish



Date: 5th November-2024

zarur. «Firibgarlik» tushunchasini o'rganish jarayonida uni ta'riflashda quyidagi to'rt xil yondashuv mavjudligi kuzatildi:

Birinchi: O'zbek tilining izohli lug'atida «firibgarlik» tushunchasining lug'aviy ma'nosi quyidagicha izohlangan: Firibgarlik– “aldamchilik, xiylagarlik”⁴ ma'nolarini bildiradi.

Ikkinchi: Islomda aldov, firibgarlik, birovni chuv tushurish, savdo-sotiqda aldamchilik kabi illatlar qoralangan. Xadisi sharifning rivoyatlarida “Kimki aldab firib bersa, bizdan emas!” deb keltirilgan.

Uchinchi: Firibgarlik jinoyati tushunchasi hamda uning uchun javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 168-moddasida nazarda tutilgan. Jinoiy-huquqiy tushunchada firibgarlik aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishni anglatadi. Bunday qilmish uchun ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

To'rtinchi: Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida firibgarlik tushunchasi yoritilgan:

Firibgarlik mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar ichida eng ko'p tarqalganlaridan biri bo'lib, aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritishdan iborat bo'ladi. Firibgarlikning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat uning sodir etilishi usuli, balki qonunda maxsus belgilangan tajovo'z qilish predmeti ham hisoblanadi.

Bayon etilgailarga ko'ra firibgarlikka doir huquqbuzarliklar oqibatida jabplanganlar shaxsi va o'zlarini tutishlari bilan bog'lik xatti-harakatlarini tadqiq etish uchun huquqbuzarlik qurbonlarini asosan quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

- huquqbuzarlik qurboni va huquqbuzar o'rtasidagi munocabat hamda ularning o'zaro bog'lanishiga;
- jinoyatni sodir etilishida sabab va muhitni yuzaga keltirish bilan bog'lik holda huquqbuzarlik qurbonlarining shahci va o'zini tutishini mavjudligiga;
- aniq bir xayotiy vaziyatlapda jabrlanyvchi tomonidan o'zini tutishi oqibatida jinoyatni yuzaga kelishiga;
- huquqbuzarlik codir etilganidan so'ng ayniksa, (retsdiv) huquqbuzarliklarni o'rganishda jabplanuvchining shahci va uni o'zini tutishiga;
- latent huquqbuzarlikni yuzaga kelishida jabrlanyvchining shahci va hatti-harakatlaridagi o'zaro bog'liklik hucusiyatlariga kabi.

Sanab o'tilganlarni e'tiborga olinishi viktimologiya muammolarini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Bugungi kunda amaliyot tahlilida firibgarlik jinoyatining sodir etgan shaxslar toifasini to'liq o'rganishlarning yaqin aloqalarini hamda

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 8000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.В. – Т: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» // URL: <http://www.lex.uz>. ²¹ Ислом ҳуқуқшунослиги. <https://m.ok.ru>



Date: 5th November-2024

jinoyat sodir etilgan vaqtda kayerda bo'lganliklarini aniklash maqsadida uyali aloqa operatorlarining maxsus dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish ijobiy natija bermokda.

Mazkur chora-tadbirlarning samaradorligi firibgarlik jinoyatini keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning sodir etilishiga imkoniyat berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish va aniq, manzilli yo'naltirilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan uzviy bog'liq.

Firibgarlikka karshi kurashishni takomillashtirish asosiy yo'nalishlari sifatida xalqaro tashkilotlarning jinoyatchilikka qarshi kurash yo'nalishi bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hamkorlik ko'lamini yanada kengaytirish va bu hamkorlik faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish lozim.

Firibgarlikka qarshi kurashda, undan jabrlanib qolmaslik choralari ko'llashda AQSH, Isroil kabi rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini chuqur o'rgangan holda ko'ni-qo'shnilar mulklarining daxlsizligini taminlash, oilaviy-maishiy muammolariga barham berish va o'zi yangilanayotgan joyda xavyo iz hudud barpo etilishida hissa ko'shish bo'yicha ichki ishlar organlari bilan hamkorlik qilish va zarur xabarlarini berish bilan shug'ullanuvchi "Ogoh mahalla" jamoatchilik tuzilmasini tashkil etish, xar bir mahallada ushbu jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yo'lga qo'yish targ'ib etiladi.

Firibgarlikning viktimologik profilaktikasini tashkil etish faoliyatini takomillashtirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Firibgarlik jinoyati asosan ko'p hollarda axborot tehnologiyalari orqali sodir etilayotgpnligi sababli qonunchilikka yangi tushuncha ya'ni "kiber firibgarlik" tushunchasini kiritish;

2. Kiber firibgarlika doir qonun loyihasini ishlab chiqish va unda kiber firibgarlikka doir asosiy tushunchalar, uni amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning vazifalarini belgilab beri;

3. Firibgarlik jinoyatida asosiy muammolardan biri bu zararni qoplash bo'lgankigi uchun: shaxs jinoyat kodekisida belgilangan jazoni utab bo'lgungacha bo'lgan davrda ham zararni qoplamagan taqdirda unga nisbatan jazoni utab bo'lganidan so'ng ham uning majburiy mehnatidan foydalangan holda zararni undirish choralari ko'rish. Buning uchun firibgarlik jinoyatini sodir qilib jazoni utab chiqqan shaxsni majburiy mehnati ustidan nazoratni amalga oshirishni amalga oshiruvchi organi Ichki Ishlar Vazirligi tarkibida tashkil etish;

4. Firibgarlik jinoyatini sodir qilgan shaxslar ko'p miqdordagi pullarni o'zlashtirib boshqa davlatga chiqib ketayotganligi sababli firibgarlik jinoyatini oldini olish va unga qarshi kurashishda chet davlat HMQO lari bilan hamkorlikni yulga quyish lozim bo'ladi.

